# TA'LIMDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Qodirova Kamola Jahongir qizi**
Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
106_20-guruh talabasi
**Fozilova Kamola Ne'mat qizi**
Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika psixologiya yo'nalishi
61-20-guruh talabasi
**Buzrukova Jamxuraxon Xurshidzoda**
Guliston Davlat Universiteti Filologiya fakulteti yo'nalishi 45_20-guruh talabasi

**Antonatsiya**:*Ta'lim jarayonining umumiy tahlili va pedagogik faoliyatning ahamiyatini bugungi kun ta'limi uchun tutgan o'rnini ilmiy va nazariy asoslar bilan tadqiq qilish. Shu jumladan pedagogik faoliyatining ma'lum metodlar orqali yangi qirralarini ochish, uning samaradorligini oshirisish.*

**Kalit so'zlar**:*Ta'lim,pedagogika faoliyat,Pedagog,ilm-marifat,ta'lim jarayoni,oliy ta'lim,maktab,psixologiya*

## KIRISH

Qadim-qadimdan ilm-ma'rifat markazi bo'lib kelgan yurtimizda ilm va ilm beruvchilar qadrlangan. Ularning dolzarbligi bugungi kunda oradan minglab asrlar o'tsada o'z ahamiyatini yo'qotmay mustaqil O'zbekistoning eng asosiy rivojlanish poydevorlaridan biri bo'lib keldi. Xususan ta'limiy jarayonlarga chuqurroq yondashib, ta'lim oluvchi yoshlarning saviyasini o'stirish, bilimli va malakali kadrlarni jamiyatga yetkazib berish kabi fazifalarni o'z zimmasiga oluvchi faoliyatning bugungi kungagi o'rni tengsiz va ahamiyatlidir. Shu jumladan bugungi kunda rivojlanib borayotgan ilm-fan dunyosida ta'limning o'rni oshishi, butun insoniyatning ta'limning o'rnini uning faoliyatini dolzarb masala ekanligini qayta ta'kidlaydi. Xususan yurtimizda Oliy ta'lim bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yuzlab loyihallar aynan shu faoliyatning dolzarb muammo va masalalarini qayta tahlil qilishga, tez va oson yo'lli yechimlar topishiga sababchi bo'libgina qolmay, balki talabalarning bu yo'nalishlarda izlanishlarga erkin imkoniyatlar yaratilayotganini ta'kidlash joiz. Ilmiy nazariyalarning chuqurroq anglash uchun har bir ta'lim oluvchida bugungi kunda amaliyot ko'nikmasini olish va o'z ustida muntazam ishlash imkoni berilgan. Pedagogik faoliyatning bu yondashuv asosida o'z o'rini yanada chuqurroq anglashi nazarda tutilgandir.Ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning o'rni muhim sanaladi, chunki aynan shu faoliyat turi qadim-qadimdan to hozirgi kungacha yosh avlodga katta avlodning bilm va tajribani ulashish yo'li sanaladi. Ta'lim oluvchilar bu faoliyat turi orqali o'zlarini o'rtab turgan sotsiumga moslashadi, ular bilan jamiyatga xos muloqot uchun dastlabki bilim va ko'nikmalar shakllanadi. Yosh avloda layoqat

va irodaviylik xislatlarining shakllanishi bugungi kunda nafaqat namanunali ota-onalar, balki o'z faoliyatini a'lo darajada olib boruvchi kompitentlilikka ega pedagog kadrlar ham sanaldi.

**ASOSIY QISM**

Faoliyat aslida inson omilini ma'lum maqsad va yo'nalishda faol bo'lishi degan lug'aviy ma'zmunga ega. Xususan pedagogika va psixologiyaning turli yo'nalishlarida turlicha izohlashgan, masalan, psixolog B. F. Lomov faoliyatni "ko'p qirrali" deya ta'kidlagan. Faoliyatning falsafiy ma'nosiga kelsak, insonning ma'lum maqsad yo'lida faol bo'lishi, ba'zan bu maqsad o'ziga qo'shimcha vazifalarni bajarishi ham kiradi. Pedagogika so'zi yunon tilidagi "bolani yetaklovchi" ma'nosiga asosga ega bo'lsada, bu so'z qaysidir ma'noda uning faoliyatining metaforik izohi sanaladi. O'qituvchi shaxsi o'z faoliyati davomida o'quvchi va ta'lim oluvchi avlodni ma'lum kasbiy ko'nikma va dunyoviy bilimlar bilan tanishtiradi. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihati shundagi u sotsium tomonidan belgilab berilib, ma'lum standatrlarga javob berishi lozim sanaladi. Bu standatrlar ko'plab olimlar va pedagoglarning umumiy tajribasi asnosidan olingan bo'lib, ruhan va jismonan sog'lom avlodning jamiatga mustaqil qadam qo'yishi uchun beriladigan bilim va ko'nikmalar sanaladi. Pedagogik faoliyatning asosi yosh avlodda kasbiy qoilyatlarini rivojlantirib, kasbga bo’lgan birlamchi layoqatni, ma’suliyat hisi kabi omillarini shakllantirishini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari ta’lim berishning eng asosiy va samarali usuli sanalmish pedagogik faoliyati aynan o’zining umumiy va individual yondashuvi bilan ahamiyatlidir. Bu avvalo yuqorida aytilgan umumiy ijtimoiy talablardan kelib chiqib qo’yiladigan standatrlardir. Bular jumlasiga dastlabki savod chiqarish, umumiy fanlarni o’rta va a’lo darajada o’zlashtirish, kasbiy ta’lim, kasbga yo’naltirishlar qamrab oladi. Bundan tashqari indivdual yondashuv ham bolib, bunda ayrim o’zlashitirshda salby va ijobiy natijaga ega o’quvchilar bilan alohida ishlash nazarda tutiadi, bundan asosiy maqsad shuki, o’quvchi qobilyatini aniqlash va uni rivojlantirishdir. Bunda pedagogik faoliyatning nafaqat bir turi, balki qo’shimcha ravishda tabiatini o’zgartirishini ham o’z ichiga oladi. Ilm va fanning rivojlanishi va kuzatuvlar natijasini xulosalaridam foydalangan holda, samaraliroq faoliyat turishi shakllanib boradi, faoliyat ma’lum davr davomida shakllanishi bilan birga sayqallanib ham boradi.

**XULOSA**

Pedagogik faoliyatning ma’zmuni asosli ravishda ham uning lug’aviy ma’nosi metaforik shaklda izohlaydi. Shu bilan birgalikda pedagogik faoliyatning o’ziga longtyud metodi orqali tahlil qilinish xulosalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bu jarayon umumiy uzluksiz ta’lim jarayonida pedagogning kasbiy sifatlarinini shakllanib borish evaziga sayqallana boradi, natijada dars berish uslubi, yondashuv, ma’lumotlarni sodda va qisqa ko’rinishda tushuntira olish, eng asosiysi qobilyatlarni to’g’ri baholash orqali dars jarayoni qadriyat darajasiga olib chiqishni nazarda tutadi. Xususan pedagogik faoliyatning ma’lum steriotip va standartlarni soddalashtirish evaziga yengillashtirishi, ma’lum ma’noda erkinlik sanaladi va aynan shu hodisa jarayonning sayqallanishini tezlashtiruvchi omil bo’lishi mumkin. Ammo bu jarayonlarda tartiblilik va qaysidir ma’noda dars va faoliyatni qadriyat darajasida barcha ta’lim oluvchilarga va ta’limga ma’sul shaxslarga singdirish lozim sanaladi. Shundagina

ta’limdagi pedagogik faoliyatning ahamiyati yanada samaraliroq bo’ladi. Buning natijasi o’laroq boshqa davlatlar ta’lim prinsplarini o’z ta’lim uslublarimizda milliylashtirilgan shaklda sinab ko’rishimiz, xususan o’zlashtirishni va jarayonni osonlashtiruvchi omillar, mnemonika, mental arifmetika, tanqidiy fikrlash kabi qo’shimcha funksiyalarni pedagogik faoliyatning jarayoniga jalb qilinadigan bo’lsa, sifat va samara bir necha yuz barobar oshishini kuzatishinmiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.Ijtimoiy pedagogika Nodira Egamberdiyeva Toshkent-2009

2. N.N. Azizxo'jayeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat T.: -2003

3.Yunusova Sh. Interfaol usullardan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim. 2004, 5-son